

KOREYS TILI O'ZBEKISTONDA

Xolboyeva Sevinch Kamoliddin qizi

Qodirova Muxlisa Xayrullo qizi

Toshkent shaxridagi Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi

E-mail: khoboyevaliili@gmail.com

E-mail: Mukhlisakadirova0812@gmail.com

Kholboyeva Sevinch Kamoliddin qizi

Qodirova Mukhlisa Khayrullo qizi

Student of Kimyo International University in Tashkent

E-mail: Mukhlisakadirova0812@gmail.com

E-mail: khoboyevaliili@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada koreys tilini rivojlanish tarixi, uning asoschilari. Koreys tiliga qiziquvchi yoshlar Topik xalqaro sertifikatini va bu tilni qaysi Oliy ta'lim muassasalarida o'rganilishi haqida.

Annotation: This article is about the history of the development of the Korean language, its founders, the Topic international certificate for young people interested in the Korean language, and in which higher education institutions this language is studied.

Kalit so'zlar: Sharq tili, qirol Se Jong, ieroglif , xanja, topic, Abdulloh Eshmuminov, Topikzone.

Key words: Oriental language, king Se Jong, hieroglyph, khanja, topic, Abdullokh Eshmuminov, Topikzone.

Rivojlanish tarixi: Koreys tili Sharq tili hisoblanib, Oltoy tillariga ba'zan to'ngus-manjur tillariga ham kiradi deb ham taxmin qilinadi. Bu tilda 80 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. O'zbek tilida shevalar bor va shu singari koreys tilida ham mavjud. Koreys tili alifbosida 40 ta fonema va 19 ta undosh, 21 ta unli mavjud. Xitoy, Sanskrit, Mo'g'ul va ba'zan Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar bor. Koreys tili 1966 – yilgacha “Madaniy til”, 1993- yildan “Standart til” deb atalgan. 1443-yilda qirol Se Jong davrida koreys olimlari Chon Min Ji, Sin Suk Chu, Son Sam Mum tomonidan yaratilgan. O'n beshinchi asrning birinchi yarmigacha esa koreys tilida xitoy ieroglif yozuvidan foydalanilgan. Oddiy xalq aholisi uchun xitoy ieroglifidan foydalanish juda qiyin bo'lgan. Faqatgina boy va zodagonlar xat-savodli bo'lishgan. Qirol Se Jong ushbu muammoni bartaraf etish uchun yangi koreys tili yaratish tashabbusini ilgari surgan. Ammo bu davrda xitoy tili koreya xalqining adabiy tili bo'lganligi uchun yangi milliy alifbo keng tarqalmagan.

O'n to'qqizinchi asr oxiriga kelib koreys tilida yana ieroglif yozuvi qo'llanila boshlagan. Boshqa fonemalar esa harflarni qo'shish yo'li bilan hosil qilingan. Hozirgi koreys tilida 40 ta grafema mavjud, shundan 24 ta asosiy va 16 tasi tarkibiydan iborat. Ulardan 19 tasi undosh va 21 tasi unli. Ammo bu grafemalar tartibi KXDR va Koreya Respublikasida farq qiladi. Ilgari yuqoridan pastga va o'ngdan chapga qarab yozilardi. Hozirgi vaqtda chapdan o'ngga qarab yozish qoidaga kiritilgan. Xitoy ieroglif yozuvi xanja har doim koreys tilida ishlatilgan va hozirgacha qo'llaniladi. Konfutsiy tarafdorlari bo'lgan koreys olimlari xanja koreys madaniyati jamiyatning turli doiralarida bugungi kunda ham shunday obro'ga ega bo'lishadi. Koreyada ayniqsa Yaponlarning mustamlakachilik hukmronligidan so'ng, koreys alifbo tizimi xangildan milliy yozuv sifatida esklyuziv foydalanish uchun harakat rivojlanadi. Shu tariqa koreys tili rivojlanib O'zbekistonga ham asta sekinlik bilan kirib keladi. Yurtimizda koreys tilini o'rganuvchi Oliy ta'lim muassasalaridan O'zbekiston Sharqshunoslik universiteti, Jahon tillari, Bucheon instituti, Ajou universiteti, Kimyo Xalqaro Universiteti va boshqa oliygohlarda koreys tilini o'qitish ta'limga kiritilgan. Koreys tilini o'rganish yildan yilga o'zbek yoshlarini e'tiborini tortmoqda. Ayniqsa koreya o'qitish tizimi, O'zbekistonga ham kirib kela boshlagani. Ya'ni kredit-modultizimi. Misol tariqasida Kimyo Xalqaro Universiteti kredit-modul tizimi orqali darslar tashkil qilingan. Talabalari esa bu sistema orqali o'zining qay daraja bilimli ekanligini va qancha yaxshiroq o'qishi kerakligini bilishadi. Universitetda tashkil qilingan koreys tili darslari esa koreyalik o'qituvchilar tomonidan ajoyib tarzda tashkil etilgan. U yerda ta'lim olayotgan yoshlar ushbu darslarni puxta o'rganganligi sababli koreys tili xalqaro sertifikatiga ega bo'lmoqda. O'zbekistonda Koreys tili markazi orqali yiliga bir necha marotaba Topik Xalqaro Sertifikati uchun imtixonlar o'tkailadi. Topik (Test of Proficiency In Korean) bu imtixon birinchi til koreys tili bo'lmaganlar insonlar, koreys tili gaplashish va tushunish qobiliyatini baholash uchun loyihalashtirilgan. Topik sertifikati 1 darajadan 6 darajagacha mavjud bo'lib, imtixon Topik1 boshlang'ich daraja va Topik 2 o'rta va yuqori darajaga bo'linadi. Topik 1 imtixonida birinchi va ikkinchi darajalarni olish mumkin. Ushbu daraja yuqori darajaga qaraganda ancha osonroq bo'lib muomala, hayotimizda qo'llaniladigan hodisalar haqida bo'ladi. Imtixon jarayoni 2 qismga bolinib maksimal 200 ballik sistema tashkil qilingan. Bulardan e sa eshitib tushunish uchun 100 bal beriladi va o'qib tushunish uchun ham 100 bal beriladi. Topik 1 daraja uchun o'tish bali 80 bal, Topik 2 uchun esa 140 bal to'plash kerak. Topik 2 yuqori va o'rta daraja imtixon jarayoni 300 ballik sistemada tashkil etilgan. Yuqori va o'rta darajada bo'lganligi sababli imtixonida muhim xabarlar, ijtimoiy muammolar haqida bo'ladi. O'rta daraja Topik 3 va 4ni o'z ichiga oladi. Yuqori darajada Topik 5,6 darajalarni qo'lga kiritishimiz mumkin. Imtixonida eshitib tushunish uchun 100 bal, insho yozish orqali 100 bal va o'qib tushunish uchun ham 100 bal beriladi. Agarda topik imtixonini uchun bilimingiz

yetarli bo'lsa albatta yuqori natijalarni qo'lga kiritishingiz mumkin. Shu jumladan O'zbekistonning yosh vakillaridan birini tanishtirib o'tmoqchiman. Abdulloh Eshmo'minov yosh bo'lishiga Topik 6 daraja sohibi, Topikzone maktabining asoschisi va direktori. Ular bilan bo'lgan suhbatda koreys tilini koreyada o'qish uchun, u yerda o'qitish tizimi kuchliligi uchun o'rganganman deya javob berdilar. Topikzone esa 2021 yil Noyabr oyida Abdulloh Eshmuminov tomonidan asos solingan. Uning ochilishi juda ham ajoyib bo'lgan, o'zim ham boshqa o'quv markazida o'qituvchilik qilib yurar edim. Hozirda koreys tili hayotimda juda ham katta ahamiyatga ega, hayotimning bir qismi ayniqsa Topikzone oilamdek bo'lib qolgan deya ta'rifladilar. Ushbu o'quv markazda 15 dan ortiq o'qituvchilar koreys tilidan dars beradi. Ochilgan davrdan to hozirgi kunga qadar 150 dan ortiq Topikzone o'quvchilari Topik sertifikatlariga ega bo'lib, yuqori natijalarni qo'lga kirib kelmoqda. Bu natijalar orali sizlarga ma'lum bo'ldiki koreys tili O'zbekistonda yildan yilga rivojlanmoqda. Unga bo'lgan qiziquvchilar esa undanda ko'p.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Son Xo Min (1994) Koreys tili; tavsiflovchi gramatika,
2. Kim Reno, Yoing key (1997) Koreys tili alifbosi; uning tarixi tuzilishi,
3. Li, Ki-Mun, Ramsey, S. Robert (2011) Koreys tili tarixi,
4. <https://www.topik.go.kr/usr/cmm/index.do> saytidan foydalanildi.